

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR VA O'SMIRLARNING IJTIMOYIY VA SHAXSIY RIVOJLANISHI

Xojiboyeva Dinora Bahtiyor qizi

*Toshkent kimyo xalqaro universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishi
2- bosqich talabasi*

Annatsiya : Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi haqida bo'lib ularni jamiyatdagi o'rni o'rni va iqtidori , va qobiliyatlari haqida .

Kalit so'zlar : Insoniyat , yordamlashish, nogironlik, psixologik, pedagogik, axborot terapiyasi , oilaviy psixoterapiya , qobiliyat , iqtidor , jamiyat.

KIRISH: Insoniyat tabiatiga boshqa insonga hamdard bo'lishni his qilish qobiliyati xosdir. Dunyo miqyosidagi dinlar ham bir biriga yordam qilishga o'rgatadi va o'zaro yordamni rag'batlantiradi. Yordamlashish - hissiy, moddiy va ijtimoiy darajada qo'llab-quvvatlash demakdir. Vaqti kelib boshqalarga qaraganda yordamga ko'proq muhtoj bo'lgan odamlar guruhi aniqlanadi. Odam tug'ilgan zahotiy oq shunday guruhga mansub bo'lishi (bolalikdan nogiron) yoki tasodifan nogironlik holatlari (halokatdan so'ng) kuzatilishi mumkin. Shu asnoda bunday odamlarga maxsus bilimga ega bo'lgan, ya'ni o'z kasbining mohir ustalarining yoki o'z ota-onasining (yaqinlarining) yordami kerak bo'ladi. Dunyo tajribasining ko'rsatishicha, ko'pgina davlatlarda na ijtimoiy rivojlanish dasturlari, na davlatning ijtimoiy siyosati ijtimoiy xodimlar faoliyatisiz olib borilmaydi. Ijtimoiy ish - bu asosida yaqqol ifodalangan insonparvarlik tamoyili - shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni bartaraf etishda odamlar, ijtimoiy guruhlarga qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, korreksiya va rehabilitatsiya qilish orqali ko'maklashish bilan bog'liq faoliyatdir. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish - O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Yo'lga qo'yilgan ishlarning natijasi sifatida aytishimiz mumkin-ki, hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalar va oilalarga majmuaviy ijtimoiy va psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish, individual va oilaviy maslahat berish; axborot terapiyasi; oilaviy psixoterapiya usullari orqali ko'pgina ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Jamiyatda alohida qobiliyatli odamlar hayotning barcha sohasida omadlidir, degan fikr shakllangan. Biroq, ko'pincha ulkan qobiliyatga ega inson u yoki bu sabablarga ko'ra shaxsiy imkoniyatini amalga oshira olmaydigan holatlarga duch kelish mumkin. Ko'pincha iqtidorli bolalar ularning atrofidagi odamlar bilan umumiy til topisha olmaydilar va tengdoshlari doirasida "e'tibordan qolgan odam" bo'lib qoladilar. Aslida esa o'sha iqtidorli bolaning fikrlash darajasiga atrofidagilarning fikrlash darajasi mos kelmasligi sababli ko'pchilik bilan til topisholmaydi. Shunday qilib iqtidorli bolalarning bir vaqtning o'zida zaif tomoni ham bo'ladi. Iqtidorli bolalarni o'qitish va tarbiyalash hozirgi vaqtda juda dolzarb hisoblanadi. Gap shundaki, millatning intellektual zaxirasi tabiiy va iqtisodiy zaxiralardan kam emas, balki ko'proq muhimdir. Ammo o'z-o'zidan bu muhim "strategik zaxira" agar uning ildizi aniqlanmasa va oziqlantirilmasa natija berishi mumkin emas. Shuning uchun mahalliy pedagogika va psixologiya oldida barvaqt tashhis qilish, iqtidorli bolalar bilan ishlash uchun maxsus yondashuv va ota-onalar bilan hamkorlik o'rnatish zarur. Iqtidorli bolalar to'g'risida g'amxo'rlik qilish - bu ilm-fan, madaniyat va ertangi ijtimoiy hayot haqidagi g'amxo'rlik demakdir. Shunday qilib, imkoniyati cheklangan iqtidorli bolalarni rivojlantirish va o'qitishda mutaxassislar nafaqat ota-onalar bilan, balki, bolalarni tarbiyalash jarayonida bevosita ishtirok etuvchi o'qituvchilar bilan ham hamkorlik qilishlari juda muhim. Biroq ko'pincha imkoniyati

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

cheklangan farzandi bor oilalarda ota-onalar qo'shnilar va atrofdagilardan ularda shunday imkoniyati cheklangan farzand borligidan uyaladilar. Ota-onasi yoki yaqinlarining bu uyalishini bola ulg'aygach anglaydi va o'zini keraksiz, befoyda shaxs ba'zida bir buyumdek his qiladi. Ular bolani go'yoki yashiradilar, tengdoshlari bilan o'ynagani qo'ymaydilar, eng kam darajadagi muloqotdan mahrum qiladilar. Ammo aynan shu muloqot va bolalarcha o'yinlar bolaning cheklangan imkoniyatini unutishda latta rol kasb etishini tushunishmaydi, chunki muloqot paytida suhbat mavzusi haqida o'ylab, o'zining zaif tomoni yodidan ko'tariladi. Bolalar esa taqiqlarni qalban his qiladilar. Kasalxonada davolanib chiqqach imkoniyati cheklangan bolalar o'zlarini qoniqarli his qiladilar, biroq ozgina vaqt o'tgach avvalgi muammo bilan yana shifoxonaga tushadilar integratsiyalanar ekan, shundagina jamiyatga integratsiyasi mumkin bo'ladi.

ASOSIY QISM: Aynan imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatda munosib o'ringa ega bo'lishlari va ichki imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun hukumatimiz tomonidan muhim qaror va farmonlar qabul qilingandir. Jumladan, 01. 12. 2017 yildagi PF - 5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda ham buning isbotini ko'ramiz.

Imkoniyati cheklangan bolaning olam bilan, tevarak-atrof bilan munosabatlari – bu uning shaxsini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda bola hayotida kattalarning haqiqatdan kerakligi va qadriyati nimalardan iborat, degan savol dolzarbdir. Kattalarning yordami qachonki bola muammolarga duch kelganida, bu muammolarning yechimiga uning hayotiy tajribasi, vakolati yetishmagan taqdirda juda zarur bo'ladi. Hayotiy kuzatuvlarga asoslangan bunday yordamning bir necha yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan - kompensatorli-rivojlantiruvchi yo'nalish: imkoniyati cheklangan bolalar hayotiy tajriba va ko'nikmani egallashlari uchun zarur bo'lgan nimanidir qilishdan cho'chiydilar. Vaholanki, ularning tengdoshlari shu kabi harakatlarni bemalol bajaradilar, masalan, daraxtga chiqib-tushish, uning shoxlariga osilish, muzli qiyalikdan sirg'anib tushish, jamoat transportida mustaqil harakatlanish va hokazolar. Bu holatda kattalar bolaning psixologik muammolarini sezishi va kuzatishi, keyin juda ehtiyotkorlik bilan bolaning o'zi mustaqil yoki tengdoshlari bilan o'rgana olmayotgan narsasini o'zlashtirishiga yordamlashishlari zarur. Bola uchun ahamiyatli bo'lgan qahramonlarning harakatlari, fikrlari, tuyg'ularini batafsil hikoya qilib berishi mumkin. Turli bolalarda turlicha kompensatorli-rivojlantiruvchi yordam zarur bo'ladi: kimgadir shunchaki hissiy qo'llab-quvvatlash yetarli bo'lsa, yana kimgadir harakatning ba'zi usullarini ko'rsatish lozim, kimgadir esa o'z qo'rquvini tushunish va axloqidagi odatiy ko'nikmalarnikengaytirish kerak bo'ladi. Keyingi yo'nalish kattalar tomonidan bolalarning hududiy chegarasini kengaytirishi va bola tomonidan anglangan olamni o'zlashtirish va tushunib yetishga ko'maklashishdan iborat. Shunday joylar bo'ladiki, bola kattalar bilangina u yerlarda bo'la oladi. Yana shunday joylar borki, bola u yerda bo'lishni istamaydi, o'zini noqulay his qiladi. Ba'zi bolalar begonalar oldida ovqatlanishdan uyaladilar, boshqalari esa fotosalonga borishdan cho'chiydilar, axir tor borliqda begonalar e'tiborida bo'lish tuyg'usi bor bu yerda. Bunday vaziyatlarda shaxsiy "MEN" ning shakllanmaganligi yoki qabul qilinmasligi muammosi, ayniqsa, keskin ortadi. Bola o'zlashtirgan olam chegarasini kengaytirish u bo'ladigan joylarning ko'payishi hisobiga ortadi, ya'ni uydan chiqib sayr qilishdan tortib boshqa shahar yoki davlatga borishgacha. Bu yerda bola bilan chiqqan katta insonning bunday sayohatlardan pedagogik maqsadini anglashi va bola oldida ko'rayotganlarining ijtimoiy-psixologik va ma'naviy mazmunini ochib bermog'i lozim. Axir har bir jamoatchilik joyi - bu insoniy munosabatlar yig'indisidir. Bunday bolalarning eng zaif tomonlaridan biri shuki, ular o'zini dunyoda faqat men nogironman, deb o'ylashadi. Bu umuman noto'g'ri va jismoniy yoki aqliy jihatdan undan ham kasali kuchloroq bolalar borligi bilishi va ko'rishi kerak bo'ladi.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON,2024

Masalan, hasa yordamida harakatlanadiga bola nogironlar aravachasida yurgan bolani ko'rishi kerak, aravachada yurgan bola esa oyoq qo'li o'smay qolgan bolani ko'rishi zarur. Bunday holatda uning hayotga qiziqishi va oldiga maqsad qo'yishi mumkin bo'ladi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, bolaning ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolaning o'zini anglashi, shaxsiy "Men" ini shakllanishi va o'z iqtidorini namoyon qilishi yoki boshqacha aytganda, o'zini "kashf" etishi jamiyat va undagi insonlar bilan bevosita bog'liqdir. Buning uchun unga mas'ul shaxslar ko'chada harakatlanishi yoki qandaydir to'garaklarga qatnashi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib berishlari hamda ko'chada harakatlanganda atrofdagilarning negativ qarashlari yoki gaplariga har qanaqa holatda ham e'tibor qaratmasligini bolaning ongiga muhrlashlari katta ahamiyat kasb etadi.

Imkoniyati cheklangan (nogiron) - bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan istalgan shaxs. Nogironlik qabul qilingan tasnifnomaga ko'ra organizmdagi domiy buzilishlarga olib keluvchi, hayot faoliyatining cheklanishiga sabab bo'luvchi, alohida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj tug'diruvchi ijtimoiy zaiflik sifatida talqin etiladi. Imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy reabilitasiyalash ijtimoiy yordamning murakkab zamonaviy va muhim tizimlaridan biridir. Uning asosiy vazifasi - maxsus tashkil etilgan suhbat vositasida shaxsning ijtimoiy statusini tiklash, uning ijtimoiy munosabatlarda ishtirokini ta'minlashdir. Imkoniyati cheklangan insonlarning asosiy muammosi quyidagilarda:

- Olam bilan aloqaning buzilganligi;
- Kattalar va tengdoshlari bilan aloqaning qashshoqligi;
- Tabiat bilan muloqotning cheklanganligi;
- Bir qator madaniy qadriyatlarining yetishib bo'lmashligi muammosi;
- Elementar ta'limni ololmaslik.

Bu muammo faqatgina sub'yektiv bo'lmay, balki ijtimoiy-siyosiy hamdir.

Xulosa : Ushbu maqola Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi haqida . Bunda aynan imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga qo'shish ularga bo'lgan dunyoqarashlarni o'zgartirish haqida yozilgan . Imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom bolalarga o'xshab ko'plab shart sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratilgan . Ular ham sog'lom insonlardek bir xil huquqlarga egadirlar . Imkoniyati cheklangan bolalarni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash uchun ko'plab chora tadbirlar tuzilgan . Bu maqolada Imkoniyati cheklangan bolalarni asosiy muammolari haqida ham qisqacha ma'limot berib o'tilgan .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. file:///C:/Users/Digital/Downloads/Axmedova+Xurshida.pdf
2. <https://www.samdu.uz/uz/news/17499>